

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA BOY OBRAZINING BADIY
TALQINI

Keldiyorov Ilhom Norqobil o'g'li

Termiz tuman 3-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hikoya janrining o'ziga xos xususiyatlari, talablari bilan birgalikda o'zbek adabiyotining hikoya janridagi katta figuralaridan bir Abdulla Qahhor hikoyalarining syujet tuzilishi, undagi obrazlar, xususan, boy obrazining badiiy roli, yozuvchining bu obrazga badiiy munosabati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Janr, hikoya, "O'g'ri", "Bemor", obraz, boy, uslub, munosabat.*

Hikoyada asar qahramoni hayotidagi faqatgina bir epizod qalamga olinadi. Natijada epik turning bu kichik janrida tasvirlanayotgan voqea-hodisaning yuz berish vaqti qisqa bo'ladi. Shu sababli unda qatnashuvchi personajlar oz bo'lishi, hajmi ixcham va syujeti sodda bo'lishi talab etiladi. Aynan hikoyadagi birgina epizod, ya'ni voqea muhimligini nazarda tutib Dilmurod Quronov shunday yozadi: "Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Zero, har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy-estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon bo'ladi, shu bois voqeaning o'zi ahamiyatli mazmun-mohiyatni namoyon etish uchun yaroqli bo'lishi lozim"[3,376].

Hikoyaning hajmi ixcham, syujeti sodda bo'lishi taqozo etilishi, unda ishtirok etuvchi personajlar miqdori ham kam bo'lishni, shuningdek, ushbu personajlar tavirlanayotgan voqea-hodisada muhim ahamiyat kasb etishini ham talab qilib keladi. Hikoya janrining yuqorida biz keltirib o'tgan talablaridan kelib chiqib, sovet adabiyoti hikoyanavisligining ilk davrlarida yaratilgan hikoyalarda tasvirlangan boy obrazlari qalamga olinayotgan voqeaning kichik bir epizodida qisqa tarzda, ammo salmoqli ahamiyat kasb etgan holda ishtirok etgan. Xususan, o'zbek adabiyoti hikoyachiligidagi katta figuralardan biri, ixchamlik va teranlik ramzi bo'lmish Abdulla Qahhor tili va uslubi haqida Oybekning shunday fikrlari bor: "Uning tili va uslubi katta masterlar darajasida. Xarakterlari aniq, bir-biridan keskin ajralib turadi"[2,10]. Adibning "Bemor", "O'g'ri" kabi hikoyalarida bu ta'rif yaqqol o'z ifodasini topgan. Ushbu hikoyalarda tasvirlangan boy obrazlari asar syujetining qisqa bir o'rnida namoyon bo'lsa-da, yozuvchi ushbu obrazlar yelkasiga katta badiiy maqsadni yuklagan. Fikrimizni yana ham aniqrog'

ifodalash uchun "Bemor" hikoyasidagi Sotiboldining chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayni Abdug'aniboy obrazini olsak.

Abdug'aniboy boy kishi. Muallif u haqda ortiqcha to'xtalib o'tirmaydi. Uning portretini ham chizmaydi. Faqatgina hayotidagi noxush bir kunni hamda xizmatkori Sotiboldi bilan ikki og'iz suhbatini bayon qiladi, xolos. Shu qisqa fursatda kitobxon nigohida bu boy qorong'ilikdan chiqib, to'la-to'kis gavdalanadi. Avvalo, Abdug'aniboy boshqa mulkdorlar kabi jonini juda qattiq sevadi. Chunki aksar yuqori taqaba vakillari mol-dunyoni nihoyatda qattiq ko'ngil qo'yganliklari sababli bu foniy dunyoga imkon qadar ko'proq qolishga intilishadi, jon-jahdlari bilan tirashishadi. "...Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi"[1,36]. O'zbeklar orasida bir naql bor: Tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib. Xuddi shu kabi yozuvchi Abdug'aniboy hayotidagi Sotiboldining ayoli bilan mushtarak bir epizodni kitobxon e'tiboriga havola etib bir zungina qalblarda umid uchqunlarini alangalatadi. "Sotiboldi xo'jaynining oldiga arzga bordi. Ammo bu borishidan muddaosi nima ekanligini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zlarini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanligini bildirdi"[1,36]. Ammo bu zamonning aksariyat boylari xasisligi bilan xalq qalbiga muhrlangan.

Hikoyadagi bemor fojiasining bir uchi jaholatga ulanib ketsa, yana bir uchi Abdug'aniboy qiyofasidagi boylarga ulanib ketadi. Chunki bu kabi boylarning bir falsafasi bor: birni berib, o'nni olish. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas deganlaridek Abdug'aniboy kabi insonlar doimo olishga o'rgangan, berishga emas. Oqibatda Sotiboldi qiyofasidagi gumashtalarning hayoti it yotish, mirza turish. Shu ma'noda Abdug'aniboy hikoyada Sotiboldilar oilasiga changal solayotgan baloga yordamchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasi syujetida boy obrazi shaxsan umuman ishtirok etmaydi. Muallif asarga bu obrazni burunsiz ellikboshi vositasida hikoya so'ngida kiritadi, xolos. Yozuvchi ushbu obraz haqida bir nechtagina ma'lumotni kitobxonga ma'lum qiladi:

- 1) burunsiz ellikboshining qaynotasi;
- 2) ismi Egamberdi va u paxta oldi-sotdisi bilan shug'ullanadi;
- 3) "kichkina" shart bilan odamlarga yordam beradi.

Ammo muallif kichik detallar vositasida umumlashma xarakterni yaratadi.

Asar syujetidan ma'lumki, Qobil bobolar oilasi dehqonchilik bilan kun ko'radi. Ho'kizsiz dehqonchilik qilib bo'lmaydi. Shu sababli yozuvchi shunday naqlni ilgari suradi: "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin"[1,32]. O'g'irlangan ho'kizni topish bahonasida elikboshi, amin, pristav, tilmoch

tomonidan shundoq ham xonavayron bo'layozgan Qobil bobo talanadi. Qobil boboning teri shilinishi shu bilan tugallanmaydi. "Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi..."[1,35]. Kuzda yig'im-terim ishlari boshlanadi. Muallif "saxiylik" bilan berilgan ikki ho'kizning badali yetishtirilgan hosil bilan to'lanishiga ishora qilmogda. Ayni paytda yana bir ishora borki, bu shartning kichik emasligida. Aytaylik, hosilning kattagina qismini Egamberdi paxtafurushga berilsa, qolgan qismi bilan Qobil bobo soliqlarni to'lasa, oxir-oqibat ro'zg'or tebratish, urug'lik sotib olish uchun paxtafurushga tabiiyki qarz bilan mustahkam bog'lanadi. Yerni sevuvchi Egamberdi kabi tadbirkorlarga esa bu ayni muddaodir.

Abdulla Qahhorning "Bemor", "O'g'ri" hikoyalari mavzu jihatdan o'tmish voqealari tasvirlangan hikoyalari sirasiga kiradi. Adib epik turning ushbu kichik janrida o'z uslubiga xos tarzda o'sha davr jamiyatining yuqori tabaqa vakillarining umumlashma xarakterini yaratadi, ma'naviy dunyosini ochib tashlaydi. Yozuvchi dastlabki hikoyasida mulkdor qatlamning xasislik, xudbinlik kabi illatlarini qoralab kelsa, keyingi hikoyasi orqali inson qiyofasidagi qonxo'r bo'rilarni, tulkidek ayyor kimsalarni ko'rsatadi. Abdulla Qahhor mazkur hikoyalarda boy obrazlaridan kishi taqdirida yetilib kelayotgan fojia dinamikasini yuqori pardaga olib chiqish uchun foydalanadi. Boy obraziga bu tarzda bir turlik munosabatda bo'lishga, balki, yozuvchini mavjud siyosiy mafkura majbur etgandir. Bunisi bizga qorong'i.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулла Қаҳҳор Танланган асарлар. Уч томлик /биринчи том [хикоялар, фелейтонлар, пйесалар]. –Т.: Ўзср ДАВЛАТ БАДИИЙ АДАБИЁТ НАШИРЁТИ, 1957. –424 б.
2. Адабиётимиз фахри / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар Умарали Норматов, Баҳодир Каримов. –Т.: "Ўзбекистон" наширёт – матбаа ижодий уйи, 2007. –328 б.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Т.: "Navoiy universiteti", 2018. – 480 bet.